


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
  
**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI**  
**CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**Zooingeneriya mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasi fakulteti**  
**60810800-Zooingeneriya 1-bosqich**  
**103-guruh talabalariga "Mutaxassislikka kirish" fanidan "Hozirgi kunda**  
**chorvachilikda tashkil etiladigan zootexniya tadbirlari"**  
**mavzusida tayyorlagan amaliy mashg'ulot ishlanmasi**



**Tayyorladi:**

**M.A.Nortasheva** - Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko‘paytirish kafedrasi assistenti

**Taqrizchilar:**

**Yaxyayev B. S-** Qorakulchilik va cho‘l ekologiyasi institute, “Oziqlantirish va saqlash” bo‘limi mudiri,q.x.f.n. dotsent

**Maxmadiyarov O. A** - “Xususiy zootexniya” kafedrasi mudiri:q.x.f.f.d.(PhD)dotsent v.b.

## 1.1. Mashg‘ulotni o‘qitish texnologiyasi.

<b>Mavzu:</b>	<b>Hozirgi kunda chorvachilikda tashkil etiladigan zootexniya tadbirlari</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotning shakli</b>	<b>Amaliy mashg‘ulot</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Zooveterinariya tadbirlarini chorvachilikdagi ahamiyati</li> <li>2. Zooveterinariya tadbirlarini xo‘jaliklarda tashkil etilishi</li> <li>3. Chorvachilikda qanday zooveterinariya va seleksion tadbirlar qo‘llaniladi.</li> </ol>
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Hozirgi kunda chorvachilikda tashkil etiladigan zooveterinariya tadbirlari. Chorva hayvonlari uchun oziqa manbasini jamg‘arish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- zootexnik tadbirlari haqida tushuncha.</li> <li>Dastavval oziqa manbasini jamg‘arish;</li> <li>- zoogigiyenik talablar ;</li> <li>- davlat tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risida tushuncha;</li> </ul>	<b>O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Davlat naslchilik tadbirlarini o‘tkazish haqida tushuncha;</li> <li>- Xujalik tadbirlarini tashkil qilish to‘g‘risida tushunchalar berish va o‘tkazish;</li> </ul>
<b>Ta’lim usullari</b>	Aqliy hujum, blits-so‘roq, Sinkveyn, Assesment texnikasi, Nostandard testlar
<b>Ta’limni tashkillash-tirish shakli</b>	Individual, kichik guruhlarda va jamoaviy ishslash
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Namunadagi auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki so‘rov, test nazorati

## 1.2. Mashg‘ulotni o‘qitish texnologik xaritasi

<b>O‘qitishning bosqichlari</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O‘qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
1-bosqich. Kirish	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi.	1.1. Tinglaydilar

(5 min)	1.2. Talabalarni faollashtirish uchun aqliy hujum usulini qo'llaydi (zootexnik tadbirlarga nimalar kiradi)	1.2. Yozib oladilar Savollarga javob beradilar
2-bosqich. Tayyorlov (5 min)	2.1. Mavzu bo'yicha bajariladigan ish bilan tanishtiradi. 2.2. Talabalar kichik guruhlarga ajratadi. 2.3. Ekspert varag'ini namoyish etiladi taqdimot shaklida. 2.4. Baholash mezoni bilan tanishtiradi.	2.1. Tanishadilar 2.2. kichik guruhlarga bo'linadilar 2.3. Topshiriq bilan tanishadi va bajarishga kirishadi. 2.4. Tinglaydi, aniqlik kiritadilar
3-bosqich Asosiy (60 min)	3.1. Guruhlarda ishni bajarilishini kuzatadi. 3.2. Taqdimot boshlanganligini e'lon qiladi. 3.3. Kamchilik va xatolarni ko'rsatib, baholaydi. 3.4. Topshiriq bajarish tartibini yana bir bor tushuntirish	3.1. Guruhlarda har bir talaba faol ishlaydi. 3.2. Guruh bo'yicha bitta talaba doskada bajaradi. 3.3. Tinglaydi, aniqlik kiritadi.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga yakun yassaydi. 4.2. Bajarilgan ishni talabalarni kelajakdagi faoliyatidagi o'rnini izohlaydi. 4.3 Uyga vazifa beradi.	4.1. Tinglaydilar, savollar beradi. 4.2. Eshitadi. 4.3. Yozib oladilar.

### **Mavzu: Hozirgi kunda chorvachilikda tashkil etiladigan zootexniya tadbirlari.**

**Darsning maqsadi:** Hozirgi kunda chorvachilikda tashkil etiladigan zooveterinariya tadbirlari. Chorva hayvonlari uchun oziqa manbasini jamg'arish.

Qoramollarning biologik xususiyati onasi bilan qizining avlod berish orasidagi muddatni 5 yil bo'lishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari o'zining ekologik-iqlim sharoiti bilan boshqa ma'muriy viloyatlardan keskin farq qiladi. Chorva mollarini urchitishda tabiiy, qo'lida va sun'iy usulda urchitish kabilar e'tiborga olinishi zarur. Bu zooveterinariya va seleksion tadbir muhim hisoblanib, toifasidan qat'iy nazar barcha qoramolchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda naslli buqalar hisobga olinadi va

baholanadi. Agarda xo‘jaliklarda sun’iy urug‘lantirish joriy etilib, unga to‘liq rioya qilinayotgan bo‘lsa, bunday holatda naslli buqani urug‘i tekshiriladi. Andrologik dispanserizatsiya o‘tkaziladi-bu impotensiya shaklini aniqlash, prognoz qilish va davolash, oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar o‘tkazishga imkon beruvchi muayyan bir reja asosida naslli qoramollarni tekshirish yoki baholash usulidir.

Shuni unutmaslik kerakki, naslli buqalar ro‘yxatga olingandan so‘ng anamnestik ma’lumotlar, ya’ni xo‘jalikda yoki naslchilik korxonasida saqlanishi, asrash va boqish sharoiti, oziqlantirish ratsionini sifati, jinsiy rejim, spermaning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, sigir va qocharlarning (urg‘ochi tana) urug‘lanish darajasi, jinsiy jarayonni buzilishi va uni namoyon bo‘lishi, jinsiy refleksning buzilish darajasi, davolash ishlari va ularning samaradorligi, yuqumli, yuqumsiz, parazitar va irsiy kasalliklar bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi.

Bulardan tashqari, naslli buqalarni umumiy fiziologik holati ya’ni konstitutsiyasi, temperamenti, semizlik darajasi, ikkilamchi genetik alomatlar va ularni namoyon bo‘lishi, nafas olishi, qon aylanishi, ovqat xazm qilish organlarining faoliyati, asab tizimi kabilalar ham e’tiborga olinadi, yoki tekshiriladi. Jinsiy organlarni tadqiq qilganda urug‘don, kuyruk, urug‘ yo‘li, moyak xaltasining holati aniqlanadi. Zaruriyat tug‘ilganda kuyruk jinsiy bezlari-prostata va pufaksimonlar, shuningdek, urug‘ yo‘li ampulalari rektal usulda tekshiriladi. Naslli hayvonlarda andrologik tekshirishlar o‘ta ehtiyyotkorlik bilan tashkil qilinishi lozim. SHuning uchun ham, tekshirilayotgan organlarni xavfsizligini ta’minlash maqsadida kuzatilayotgan hayvonni tinchlantiruvchi va og‘riqsizlantiruvchi maxsus dori-darmon vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Naslli buqalardan olingen sperma laboratoriya tahlilidan o‘tkaziladi. Mikroskopik tekshirish asosida hajmi va hidi aniqlanib, spermaning sanitariya sifatiga baho beriladi. Bundan tashqari spermiylar zichligi va faolligi, konsentratsiyasi, tirik, o‘lik, normal va patologik jinsiy xujayralar miqdori aniqlanadi. Biokimoviy tahlil yo‘li bilan spermadagi fruktoza va fermentlar miqdori aniqlanadi. Bakteriologik tekshirish asosida mikrob bilan ifloslanganligiga oid ma’lumotlar olinadi. Klinik tekshirishlar va buqalar spermasi tahlili ma’lumotlariga, shuningdek sigirlarning urug‘lanish samaradorligiga asoslanib naslli buqalar to‘rt guruhga ajratiladi:

**1. Yuqori mahsuldor buqalar** - bunday buqalarning urug‘lantirish darajasi 70 foizdan ortiq bo‘ladi. Ularning spermasining faolligi 8 balldan ortiq, eyakulyat hajmi 5 ml va 1 mlyard/mln. spermada ortiq konsentratsiyali spermiylar, spermada 80-95 foiz tirik jinsiy xujayralar bo‘ladi. Rezistentligi 20-60 ming, hayotchanligi 70-110 soat oralig‘ida, patologik shaklga ega bo‘lganlari 3 foizdan ko‘p emas. Spermada fruktoza miqdori 460-680 mg/100 mln. oralig‘ida

**2. Yaxshi mahsuldor buqalar** - birinchi urug‘lantirishda sigirlarni urug‘lanish darajasi 50-70 foiz. Eyakulyat hajmi kamida 3-4 ml spermiylar konsentratsiyasi 0,4-0,8 mlrd/mln. Spermiylar faolligi 7-9 balldan ortiq, spermada kamida 70 foizdan ortiq tirik

jinsiy hujayralar mavjud. Rezistentligi 10-20 ming, hayotchanligi 50-80 soat atrofida, patologik shakllar salmog'i 5 foizdan ko'p emas. Fruktoza miqdori 300-500 mg/100 ml ni tashkil etadi.

3. **Past mahsuldor buqalar** - bunday buqalar sun'iy vaginaga urug' ajratmaydi, bezovtalanib stres holatda bo'ladi. Eyakulyat hajmi 2 mln. va 0,2-0,5 mlrd/mln. spermadan ziyod konsentratsiyali, spermiyilar faolligi 6 balldan kam, rezistentligi 4 mingdan oshmaydi, hayotchanligi 30 soat atrofida, patologik shakllar salmog'i keskin ko'payib 20 foizga etadi.

4. **Nasliz buqalar** - bunday buqalarni bir qismi sperma ajratmaydi, ajratganlarida ham spermaning sifati past bo'ladi, rezistentligi va hayotchanligi juda kam bo'lgan spermalar ajratadi.

Ana shu tadbirdan keyin yuqori va yaxshi mahsuldor buqalardan naslchilik ishlarida foydalaniladi, uchinchi va to'rtinchchi guruh buqalari esa davolash uchun ajratiladi. Ko'pgina hollarda to'rtinchchi guruh buqalari poda tarkibidan chiqariladi va puchak qilinib naschilik ishlariga yaroqsiz deb baholanadi, ular bo'rdoqilanib go'shtga topshiriladi. Naslchilik maqsadida ajratilgan birlinchi va ikkinchi guruh buqalari bilan ularni zoti, zotdorligi, mahsuldorligi, yoshi va jinsiy moyilligi e'tiborga olinib juftlash rejasini tuziladi. Ushbu zooveterinariya tadbirlarining barchasi viloyat veterinariya bo'limi va "Nasl xizmat" uyushmasi mutaxassislari bilan hamkorlikda tashkil qilinadi.

Ma'lumki, har bir tadqiqot va izlanish nafaqat zooveterinariya jihatidan balki iqtisodiy jihatdan ham tahlil qilinishi shart, ayniqsa bu holat bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim hisoblanadi. Chunki samara bo'lmaydigan tadbirni tashkil qilish va uni rivojlantirish xo'jalik uchun va soha mutasaddilari uchun bir muncha qiyinchiliklarni tug'diradi.

Viloyat, tuman yoki biron bir xo'jalikda irsiy nuqson, mayib-majruhlik, kasalliklar shu jumladan ginekologik nuqsonlar quyidagi holatlarda iqtisodiy zarar keltiradi.

1. Naslli buqalarni seleksion sinovdan o'tkazmaslik natijasida, juftlashni to'g'ri tashkil qilmaslik va urug'ni tekshirmaslik oqibatida nuqsonlar kelib chiqadi, ayrim hollarda sigirlar qisir qoladi, urg'ochi tanalar urug'lanmaydi.

2. Genetik nuqson, mayib- majruhlik sut mahsuldorligini 20 foizga kamayishiga olib keladi. Bu esa sohani iqtisodiy samaradorligini o'rtacha 20-30 foizga qisqarishiga olib keladi.

3. Ko'pgina genetik nuqsonlar, majruhliklar va kasalliklar sigirlarning reproduktov faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Natijada ayrim xo'jaliklarda 20-40 foizgacha sigir va qocharlardan (urg'ochi tana) avlod olinmaydi. Bu Respublikamiz bo'yicha 160-150 ming bosh buzoq olinmaydi degan gapdir.

4. Genetik nuqsonlarni va majruhliklarni oldini olish va bartaraf qilish uchun sun'iy urg'lantirishni talab darajasida joriy qilish zarur. Agarda 80 bosh urg'ochi molni urug'lantirish uchun 2 bosh buqa boqilib, ularga bir yilda 2692 ming so'm, yoki har bir

bosh sigirni urug‘lantirish uchun 33650 so‘m xarajat qilinadi. Bir doza urug‘ni narxi 650 so‘m, boshqa xarajatlar bilan 1,5 ming so‘mga etadi. Demak 80 bosh sigirni sun’iy urug‘lantirishga 120 ming so‘m sarflanadi. Bunda har bosh sigir hisobiga 32150 so‘m sof foyda olinadi. 80 bosh hisobiga bu ko‘rsatkich 257,2 ming so‘mni tashkil etadi.

5.Sun’iy urug‘lantirishni iqtisodiy samaradorligini yana shundan bo‘lsa bo‘ladiki, Respublikamizning barcha toifdagi xo‘jaliklarida urchitilayotgan 3,0 mln. bosh (2008 yil) sigirni sun’iy urug‘lantirish uchun 150 bosh naslli buqa zarur bo‘ladi. Agarda qo‘lda qochirilsa bu son 37284 boshni tashkil etadi. Ushbu buqalarni boqish uchun sarflangan oziqa bilan shuncha bosh urg‘ochi mollarni boqib, ulardan yiliga 37284 bosh buzoq va har biridan o‘rtacha 3000 kg va jami 111564 tonna sut olish mumkin.

## ***1-guruuh***

### **TOPSHIRIQLAR:**

**1 -topshiriq.** Naslchilik tadbirlari qanday tashkil qilinadi va u haqida tushunchalar bering .

**2-topshiriq.** Naslchilk rejasি qanday tuziladi,zootexnik tadbirlarni tashkil qilish usullari.

## ***2-guruuh***

**3-topshiriq.**Oziqa manbasini jamg‘arish, qanday tashkil qilinadi?

**4-topshiriq.** Xozirgi kunda o‘tkaziladigan xujalik tadbirlari qanday tashkil etiladi?

### **Assiment texnikasi**

TEST	MUAMMOLI TOPSHIRIQ
Zootexnik tadbirlarning mohiyati nimada va uning natijasi nimalarga bog‘liq bo‘ladi? a) Umumiylfenotipik o‘zgaruvchanlikning genotipik o‘zgaruvchanligiga b) Umumiylgenotipik o‘zgaruvchanlikning fenotipik o‘zgaruvchanligiga c) Biron bir ko‘rsatkichini yana mustahkamlash maqsadida A va C javoblar to‘g‘ri	Sigirlardan xo‘jalikda foydalanishning jadalligiga naslchilik taqdbirlarining ahamiyati katta . Aytingchi, tadbirlarni tashkil qilishni ahamiyati qanday?
SIMPTOM tadbir bu –	AMALIY KO’NIKMA Tadbir turlarini ayting.

## *Uyga vazifa*

### **TOPSHIRIQ:**

**1-topshiriq.** Zooveterinariya tadbirlarini chorvachilikdagi ahamiyati

**2-topshiriq.** Zooveterinariya tadbirlarini xo‘jaliklarda tashkil etilishi

**3-topshiriq.** Chorvachilikda qanday zooveterinariya va seleksion tadbirlar qo‘llaniladi.

### **Mavzuga doir test:**

#### **1.Chatishtirish usullari nechta?**

- A.7 ta.
- B.8 ta.
- D.5 ta.
- E.3 ta.

#### **2. Zavod chatishtirishning maqsadi nima?**

- A.zotlarni yaxshilash.
- B.yangi zot yaratish.
- D.go‘sht mahsuloti uchun.
- E.sut mahsuloti uchun.

#### **3.Qon singdirish chatishtirishning maqsadi nima?**

- A.yangi zot yaratish.
- B.zotni yanada mustahkamlash.
- D.sut mahsulotini oshirish.
- E/ayrim zotlarning kamchiliklarnini to‘g‘rilash.

#### **4.Urchitish usullari necha?**

- A.5 ta
- B.6 ta
- D.4 ta
- E.3 ta

## **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Sobirov P.S., Kaxarov A.K., Do'stqulov S.D. Chorva mollarini urchitish. Darslik. Toshkent, 2003 yil.
- 2.Maqsudov I., Jo'rayev J., Amirov Sh. "Chorvachilik asoslari". O'quv qo'llanma. Toshkent, 2010 yil.

## **Xorijiy adabiyotlar**

- 1.SAPP JAN «Genesis: The Evolution of Biology». Oxford University Press, USA. 2018, USA.

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.

## **Axborot manbaalari**

- 1.[www.gov.uz](http://www.gov.uz) -O'zbekiston Respublikasi xukumat portalı
- 2.[www.lex.uz](http://www.lex.uz) O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari Ma'lumotlari milliy bazasi
- 3.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 4.[sea@mail.net21.ru](mailto:sea@mail.net21.ru)
- 5.[veterinary@actavis.ru](mailto:veterinary@actavis.ru)





